

ODIL YOQUBOV IJODIDA HAYOTIY TAJRIBA VA BADIY TAFAKKUR UYG‘UNLIGI

Rahimova Sabina Hamdamovna

Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti

E-mail: raximovasabina06@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tezisda o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning hayot yo‘li va ijodiy faoliyati o‘rganiladi. Adibning shaxsiy hayotida kechgan murakkab ijtimoiy-siyosiy voqealar uning badiiy tafakkuri shakllanishiga ta’siri nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Asarlarida til, uslub va badiiy tasvir vositalarining o‘ziga xosligi ilmiy jihatdan yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Odil Yoqubov, badiiy tafakkur, hayotiy tajriba, roman janri, qissa, til va uslub, badiiy tasvir.*

Odil Yoqubov XX asr o‘zbek adabiyotida murakkab tarixiy jarayonlarni badiiy talqin etgan yetuk ijodkorlardan biridir. U 1926-yil 20-oktabrda Qozog‘iston Respublikasi Chimkent viloyati Turkiston tumaniga qarashli Qarnoq qishlog‘ida tug‘ilgan. Yozuvchining bolalik yillari qatag‘on davri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, otasi Egamberdi Yoqubovning “xalq dushmani” sifatida qamalishi va bedarak yo‘qolishi adib ruhiy olamida chuqur iz qoldirgan. Onasi Gulshan ayaning mashaqqatli mehnati, oiladagi ijtimoiy og‘irliklar yozuvchining kelajakdagi asarlarida inson taqdiri va adolat masalalarining markaziy o‘rin egallashiga sabab bo‘lgan.

1944-yilda maktabni tamomlagan Odil Yoqubov Ikkinchi jahon urushida qatnashadi. Urush yillarida orttirilgan hayotiy tajriba yozuvchining realizmga asoslangan badiiy tafakkurini yanada mustahkamlagan. Urushdan keyin u O‘rta Osiyo davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil olib, adabiyotga ilmiy va nazariy yondashuvni puxta egallaydi. Keyingi faoliyati davomida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, matbuot va kino sohasida ishlashi uning dunyoqarashini kengaytirgan.

Adibning ijodiy yo‘li “Tengdoshlar” qissasi bilan boshlangan bo‘lib, unda urushdan keyingi avlodning ruhiy holati va ijtimoiy muammolari yoritiladi. “Dastlabki qadam”, “Ikki muhabbat”, “Muqaddas”, “Billur qandillar”, “Qanot juft bo‘ladi” kabi asarlarda insoniy munosabatlar, axloqiy tanlov va ma’naviy poklik masalalari badiiy talqin etilgan. Bu asarlarda yozuvchining sodda, ravon, lekin mazmunan teran uslubi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Odil Yoqubov roman janrida ham yuksak natijalarga erishgan. “Er boshiga ish tushsa”, “Ulug‘bek xazinasi”, “Diyonat”, “Ko‘hna dunyo” romanlari tarixiy haqiqat va badiiy fantaziyaning uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, “Ulug‘bek xazinasi” romanida ilm, adolat va tarixiy shaxs masalalari falsafiy umumlashtirish darajasiga ko‘tarilgan. Ushbu asar nafaqat o‘zbek, balki jahon adabiy jarayonida ham munosib e’tirof etilgan.

Mustaqillik davrida yaratilgan “Adolat manzili” romani Odil Yoqubov ijodida yangi badiiy tafakkur bosqichini boshlab bergan yirik epik asar hisoblanadi. Roman yozuvchining

uzoq yillik hayotiy kuzatuvlari va ijtimoiy tajribasi asosida yaratilgan bo‘lib, unda yaqin tarixdagi murakkab siyosiy jarayonlar, sobiq tuzum davrida shakllangan totalitar tafakkurning inson ruhiyatiga ko‘rsatgan salbiy ta’siri hamda jamiyatda adolat va haqiqat masalalarining dolzarbligi keng qamrovda badiiy tahlil etiladi. Asarda shaxs erkinligi, vijdon mas’uliyati va insoniy qadr-qimmat muammolari ijtimoiy-falsafiy umumlashtirish darajasiga ko‘tarilib, yozuvchining ijodiy kamoloti va estetik qarashlari yetuk bosqichga yetgani yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shu jihatdan, “Adolat manzili” romani adib ijodining mantiqiy yakuni bo‘lish bilan birga, mustaqillik davri o‘zbek romanistikasi taraqqiyotida muhim hodisa sifatida e’tirof etiladi. Yozuvchi tarixiy haqiqatni shaxs taqdiri bilan uzviy bog‘lab, jamiyat va inson o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni hayotiy va ishonarli tarzda tasvirlaydi.

Odil Yoqubovning dramaturgik ijodi ham uning badiiy dunyoqarashini to‘laqonli anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. “Bir koshona sirlari” va “Muzaffar Temur” pyesalarida tarixiy voqealar va zamonaviy muammolar o‘zaro uyg‘un holda talqin qilinib, shaxs va davr munosabatlari keskin dramatik ziddiyatlar orqali ochib beriladi. Ushbu asarlarda tarixiy xotira faqat o‘tmish tasviri sifatida emas, balki bugungi kunni anglash va baholash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Yozuvchi ijodining yetakchi xususiyatlaridan biri — oddiy inson obrazining markazga qo‘yilishi va uning ichki ruhiy olamining chuqur psixologik tahlilidir. Qahramonlarning vijdon azobi, ma’naviy izlanishlari, hayotiy tanlovlari hamda ijtimoiy muhit bilan ziddiyatlari tabiiylik va badiiy ishonchlik asosida tasvirlanadi. Bu esa o‘quvchining asar qahramonlari bilan ruhiy hamohanglikda bo‘lishiga imkon yaratadi.

Odil Yoqubovning individual uslubi leksik soddalik, xalqona ifodalar, ramziy detallar va puxta tanlangan badiiy tasvir vositalari orqali shakllangan bo‘lib, mazkur xususiyatlar asarlarning g‘oyaviy-badiiy ta’sirchanligini oshiradi. Yozuvchi murakkab ijtimoiy va falsafiy masalalarni sodda, ravon, ammo mazmunan teran badiiy shaklda ifodalashga erishgan.

Adibning o‘zbek adabiyoti rivojiga qo‘shgan ulkan hissi davlat tomonidan yuksak baholangan. U “O‘zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi” unvoniga sazovor bo‘lgan, shuningdek, “Do‘stlik” va “El-yurt hurmati” ordenlari bilan taqdirlangan. Uning asarlari ko‘plab xorijiy tillarga tarjima qilinib, millionlab nusxada chop etilishi yozuvchining ijodi xalqaro miqyosda ham e’tirof etilganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, Odil Yoqubov ijodi hayotiy tajriba, tarixiy xotira va yuksak badiiy tafakkur uyg‘unligiga asoslangan bo‘lib, u o‘zbek adabiy merosida muhim ilmiy-nazariy va estetik ahamiyatga ega. Adib asarlari inson, jamiyat va davr munosabatlarini chuqur anglashda bugungi adabiy jarayon uchun ham muhim badiiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo‘ldoshev B., Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. — Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashri, 2006. — 88 b.
2. Mamajonov S. Uslub jilolari. — Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. — 80 b.
3. Muqimova Z. O‘tkir Hoshimov asarlarida tilning lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. — Toshkent, 2020. — 160 b.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5 jildlik. 4-jild. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006–2008. — 504 b.
5. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So‘z estetikasi. — Toshkent, 1981. — 61 b.
6. Umurkulov B. O‘zbek badiiy nasrining lingvo-uslubiy shakllanish asoslari: filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. — Toshkent, 2020-b